

**O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINI O'RGANISHDA TEKNOLOGIK  
YONDASHUV**

**Botirova Nigora,**  
*Alisher Navoiy  
nomidagi  
ToshDO'TAU  
magistranti*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada o'zbek bolalar adabiyotini o'rghanishda texnologik yondashuv xususida so'z yuritiladi. Qayd etish lozimki, o'zbek bolalar adabiyotining ilmiy xususiyatlari bevosita ularga metodik yondashuv orqali ochib berilib, pedagogik nuqtayi nazardan tahlilga tortiladi. Bolalar adabiyotiga texnologik yondashuvda ularning badiiy sifatlariga, bolalar dunyoqarashi, yosh xususiyatlari, fikriy omillariga e'tibor bergan holda nazariy tahlil qilish tadqiq jarayonining ajralmas qismi sifatida qayd etiladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek bolalar adabiyoti, adabiyot tahlili, texnologik yondashuv, metodik yondashuv, badiiy mahorat, ilmiy nazariya.

*Abstract.* This article talks about the technological approach to studying Uzbek children's literature. It should be noted that the scientific features of Uzbek children's literature are directly revealed through a methodical approach and analyzed from a pedagogical point of view. In the technological approach to children's literature, theoretical analysis, paying attention to their artistic qualities, children's outlook, age characteristics, intellectual factors, is noted as an integral part of the research process.

**Keywords:** Uzbek children's literature, literature analysis, technological approach, methodological approach, artistic skill, scientific theory.

*Абстрактный.* В данной статье говорится о технологическом подходе к изучению узбекской детской литературы. Следует отметить, что научные особенности узбекской детской литературы непосредственно раскрываются посредством методического подхода и анализируются с педагогической точки зрения. В технологическом подходе к детской литературе теоретический анализ, обращающий внимание на их художественные качества, мировоззрение детей, возрастные особенности, интеллектуальные факторы, отмечается как неотъемлемая часть исследовательского процесса.

**Ключевые слова:** узбекская детская литература, литературный анализ, технологический подход, методический подход, художественное мастерство, научная теория.

Ma'lumki, ta'lim taraqqiyoti bevosita unda olib borilayotgan ilmiy-metodologik izlanishlarga bog'liq hisoblanib, metodikaning zamonga mos holda shakllanishi ilmiy tadqiqotlarning sifat darajasining yanada oshishiga xizmat qiladi. Ilmiy metodika ta'lim tizimining ajralmas qismi sanalib, ular o'rtasidagi uzviylik izlanishlar samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolamiz ham bevosita metodikaga asoslangan bo'lib, unda bolalar adabiyotini o'rghanishda texnologik yondashuv maqolamiz obyekti sifatida markazdan o'rin egallaydi. Shu o'rinda texnologik yondashuv o'zi

nima, uning ilmiy tahlilda qanchalik ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilishimiz lozim.

Ta’limga texnologik yondashuv XX asrning oxiri mobaynida demokratik davlatlar orasida shakllana boshladi va bugungi kunga kelib o‘zining rivojlanish cho‘qqisiga erishdi. Ta’lim jarayonida texnologik nuqtayi nazardan yondashish ushbu sohaning ma’lum maqsadga yo‘naltirilganligiga asoslanadi. Ushbu jarayon ayrim olingan tadqiq manbalarining ketma-ket, izchil holatda shakllanishiga asoslanadi hamda o‘zining tahliliy asoslarini namoyon etadi va u quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- *ta’lim berish jarayonida qat’iy maqsadni shakllantirish;*
- *ushbu maqsad asosida ayrim guruhlar tizimiga o’tish, ya’ni umumiyyadan xususiylik sifatiga o’tish;*
- *ushbu dastur asosida o‘quvchilarning bilimini tahlil qilish.*

Pedagogik tadqiqqa texnologik yondashuv bevosita metodik vositalarga asoslanadi. Yuqoridagi ketma-ketlik asosida maqolamiz mavzusiga daxldorlikni yuzaga chiqarish uchun uni quyidagicha sifatlashimiz mumkin, ya’ni o‘zbek bolalar adabiyoti umumiyyadan xususiyga holatida shakllantirilgan. Unga texnologik yondashuvdan asosiy maqsad o‘quvchilarda bolalar adabiyoti to‘g‘risida tushuncha hosil qilish hamda so‘nggi bosqich tarzida yuzaga kelgan o‘quvchilar bilimini tahlil qilish sifatini texnologik yondashuvning obyekti sanalgan metodika orqali amalga oshirishdan iboratdir. Demak, o‘zbek bolalar adabiyotiga metodik tarzdan yondashish ushbu yo‘nalishning ilmiy-nazariy jihatlarini yoritishga yordam beradi.

Bolalar adabiyotini tahlil qilishga mo‘ljallangan metodik manba bevosita o‘zlashtirilayotgan axborotni tizimli o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi, qabul qilinayotgan manbalarning ketma-ket holatda yuzaga chiqishiga asoslanishi lozim. Buning uchun bolalarning fikrlash, yosh, psixologik jihatlarini e’tiborga olgan holda tadqiq jarayonini olib borish ushbu yo‘nalishga mos metod tanlashni taqozo etadi.

O‘zbek adabiyotini o‘rganishda texnologik yondashuvni nazarda tutuvchi metodlardan biri bu “Assotsiatsiyalar” metodidir. Ushbu metodni dars jarayonida qo‘llash o‘tilgan yoki o‘tilajak mavzuga oid birliklar yozilgan plakatni o‘quvchilarga namoyish etish orqali olib boriladi [Wikipedia.org]. Unda o‘quvchilar tomonidan ana shu so‘z eslanganda tasavvurlariga nima kelishiga oid fikrlar yozjb qo‘yiladi. “Assotsiatsialar” metodini quyidagicha bajarish tavsiya etiladi:

**D – Dilshod Rajab**

**I – Ilk she’r**

**L - laylak**

***Sh – she’riyat***

***O – oltin qalam***

***D – Daryo ko‘ngil***

***R – rostlik***

***A – alifbo***

***J - jajji***

***A – Adabiyot jamg‘armasi***

***B - bolalik***

Ushbu metod asosida bolalar avvalgi yoki kelgusi o’tiladigan mavzu asosida o’zlarining tasavvurlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Metodni qo’llash jarayonida mavzuga aloqador turli so‘zlarni yozib qo‘yish mumkin. Bu orqali o‘quvchilarda olingan axborotni takrorlash hamda izlanuvchanlik qobiliyatlarini mustahkamlash kabi rivojlantiruvchi sifatlar shakllanadi. “Assotsiatsialar” metodini qo’llash yoshlar tafakkurini rivojlantirish, tezda fikrlash qobiliyatlarini o’stiradi[[kitobdunyosi.com](http://kitobdunyosi.com)].

Bundan tashqari, o‘zbek bolalar adabiyotini o‘rganishda texnologik yondashuvni yanada oshirish uchun “Pog‘onama-pog‘ona” metodini ham qo’llashni tavsiya qilamiz. Ushbu metodga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan aralash holda taqdim etilgan ma’lumotlarni ketma-ket joylashtirish o‘quvchilardan talab etiladi. Masalan, Dilshod Rajabning “Piyolaning hazili” she’rini misol tariqasida keltirish mumkin[Mirvaliyev,2016: 56]:

Burning doim osmonda.	
Choynak, do‘stim, ne uchun?	
Ha. Bilaman, og‘zingga	
Lekin menga kerilma,	
Quyib turar qumg‘onlar	
Jilmasdan shu o‘rnimdan.	
Ichganingni barini	
Tortvolaman burningdan	

Keltirilgan jadvalda she’riy misol tartibi buzilgan holda joylashtirilgan. Uning to‘g‘risidagi bo‘sh kataklarga esa she’rning joylashuv o‘rni to‘g‘rilangan holati aks ettiriladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o‘zbek bolalar adabiyotiga metodologik yondashuv prinsipi texnologik yondashuv tadqiqining ajralmas qismi sanaladi. Ushbu holatda olib borilgan tizimli axborotning ilmiy tahlili bevosita bolalarning mavzu

o'zlashtirish imkoniyatlarini nazarda tutishi, uning nazariy ko'lamini hisobga olishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2016-yil.
2. Rajab D. Xayrli tong. – Toshkent: Muharrir, 2019.
3. Rajab D. „Tarjimai hol. (1964)“ (05.01.2018). 2021-yil 20-sentabrda asl nusxadan arxivlangan // Qaraldi: 2022-yil 5-noyabr.
4. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
5. [www.kitobdunyosi.com](http://www.kitobdunyosi.com)